



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSIYAVIY QAROR QABUL QILISH AMALIYOTINING TAHLILI

Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o‘g‘li

*Mustaqil izlanuvchi
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
E-mail: kamoliddin_57@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5193-4662*

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiyaviy qarorlar qabul qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Investitsiyaviy qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslari, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari hamda investitsiya loyihalarini baholash usullari o‘rganilgan. Tadqiqot obyekti sifatida “Agro finans lizing” AJ faoliyati tanlanib, uning 2019-2024 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsiyaviy qarorlar, aksiyadorlik jamiyati, lizing kompaniyasi, investitsiya loyihasi, NPV, IRR, MIRR, PI, ROI, moliyaviy instrumentlar, investitsion strategiya.

АНАЛИЗ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Бахриддинов Камолиддин Бахриддин угли

*Научный соискатель
Ташкентский международный
университет Кимё
E-mail: kamoliddin_57@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5193-4662*

Аннотация. В статье исследовано теоретические и практические аспекты принятия инвестиционных решений в акционерных обществах. Изучены научные основы инвестиционного менеджмента, возможности использования современных финансовых инструментов и методы оценки инвестиционных проектов. В качестве объекта исследования выбрана деятельность АО «Agro finans lizing», проведён анализ его финансовых показателей за 2019-2024 годы и экономической эффективности инвестиционных проектов на 2025-2030 годы.

Ключевые слова: инвестиционные решения, акционерное общество, лизинговая компания, инвестиционный проект, NPV, IRR, MIRR, PI, ROI, финансовые инструменты, инвестиционная стратегия.

ANALYSIS OF INVESTMENT DECISION-MAKING IN JOINT-STOCK COMPANIES

Bakhriddinov Kamoliddin Bakhriddin ugli

*Research PhD candidate
Kimyo international university in Tashkent
E-mail: kamoliddin_57@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5193-4662*

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of investment decision-making in joint-stock companies. The scientific foundations of investment management, the application of modern financial instruments, and methods for evaluating investment projects are analyzed. The study focuses on the activities of «Agro finans lizing» JSC, assessing its financial performance during 2019-2024 and evaluating the economic efficiency of its investment projects planned for 2025-2030.

Keywords: investment decisions, joint-stock company, leasing company, investment





project, NPV, IRR, MIRR, PI, ROI, financial instruments, investment strategy.

Kirish

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirishning joriy bosqichida moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tadbir etish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining istiqboldagi moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash ko‘p jihatdan mukammal ishlab chiqilgan investitsion strategiyalar hamda investitsiyaviy qarorlar sifatiga bog‘liqdir. Shu bilan birga, korporativ sektorni rivojlantirishda institutsional va tashkiliy asoslarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-291-son qarori [1] kapital bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish hamda korporativ moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmini joriy etishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlarini joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda global iqtisodiyotda yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, moliya bozorining integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va investitsion resurslar uchun raqobatning kuchayishi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qarorlar qabul qilish jarayonlariga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. An‘anaviy moliyalashtirish manbalari bilan bir qatorda korporativ obligatsiyalar, yashil obligatsiyalar, sukuk obligatsiyalari, venchur kapital, kraudfanding platformalari hamda boshqa zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish amaliyoti tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda investitsiyaviy loyihalarni baholash, tanlash va moliyalashtirish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning sifat darajasi korporativ tuzilmalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqoridagilar asosida ta‘kidlash kerakki, korporativ tuzilmalarda investitsiyaviy qarorlar qabul qilish amaliyotini tizimli tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Korporativ tuzilmalarda investitsiyaviy qarorlar qabul qilishning ilmiy-nazariy asoslari, qarorlar qabul qilishda moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, investitsion loyihalarni boshqarishga doir mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlari tadqiqotlar olib borilmoqda.

Iqtisodchi olimlar P.Nachyła, R.Justo moliyaviy strategiyaga tarif berishda uning funksional vazifalariga asosiy e‘tiborni qaratgan holda yondashgan. Shu bilan birga moliyaviy strategiyaning asosiy elementlari va ularning tasnifiy jihatlari yoritib berilgan. Olimlarning fikriga ko‘ra, moliyaviy strategiyaning asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish; pul oqimlarini boshqarishni optimallashtirish; moliyaviy risklarni boshqarishni rivojlantirish; moliyaviy va raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritishni rag‘batlantirish [2]. Moliyaviy – investitsiyaviy strategiyalar nafaqat kompaniyaning tashqi va ichki sharoitlarda qaror qabul qilishi balki, aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qiluvchi alohida tashkiliy tuzilma sifatida yondashiladi. Jumladan, moliyaviy-investitsion strategiya nafaqat kompaniyaning moliyasini (tizimini) boshqarish, balki kompaniya uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishishi ta‘minlash, ya‘ni kompaniyaning uzoq muddatli strategik maqsad va vazifalariga erishishishi orqali istiqbolda kompaniyaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish jarayondir [3]. Investitsiyaviy strategiyalar nafaqat kompaniyaning ichki yoki tashqi muhit bilan bog‘liq holda qarorlar qabul qilishligi balki, qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mas‘ul shaxslarning ijodiy yondashuvi, boy amaliy tajribaga ega bo‘lishligi





alohida qayd etib o‘tilmoqda. Albatta bunday sharoitda kompaniyaning ijro organlari bo‘yicha mas’ul rahbarlari o‘zlarining sezgirliklari (intuitsiyalari), uzoqni “ko‘ra olish” qobiliyatlari va tabiiyki ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin [4].

N.N.Sokolovning ta’kidlashicha “funktional strategiyalardan biri sifatida investitsiyaviy strategiyaning muhimligi, korxonaning asosiy maqsadlariga erishish jarayonida moliya tizimi orqali iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar barqarorligini ta’minlovchi funktsional vazifalar majmuini tashkil qilishda namoyon bo‘ladi” [5]. S.A.Popovning fikriga ko‘ra, investitsiyaviy strategiyani strategik raqobatdosh ustunlikka erishish uchun kompaniyaning o‘z va jalb qilingan moliyaviy resurslaridan foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha uzoq muddatli aniq harakatlar dasturi shaklida taqdim etilgan umumiy strategiyaning quyi tizimi sifatida belgilaydi [6].

O.Xamdovning ta’kidlashicha, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish moliyaviy-investitsion strategiyalarni takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. Bunda moliya bozori bilan munosabatlarni rivojlantirish, qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro standartlarini joriy etish hamda kapital tuzilmasini optimallashtirishda moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi [7]. Sh.Egamberdiyevning fikricha, “korxonalar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uning tadbirkorlik faoliyatini asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan boshlanadi. Bundan kelib chiqqan holda uning amalga oshirilish shakllari belgilanadi va yakuniy tanlov bajariladi. Strategiya o‘zida har qanday korxonaning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani amalga oshirish hamda maqsadga erishishni mo‘ljallangan detallashtirilgan shakldagi har tomonlama reja hisoblanadi” [8].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, fikrimizcha, korporativ tuzilmalarda investitsiyaviy qarorlar qabul qilish kompaniyaning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish, bozor qiymatini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayon investitsion loyihalarni tanlash, baholash va moliyalashtirish bo‘yicha qarorlarni qabul qilish bilan bir qatorda, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish hamda investitsiya portfelini optimallashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Investitsiyaviy qarorlar qabul qilish samaradorligi korporativ tuzilmalarning moliyaviy imkoniyatlari, korporativ boshqaruv sifati, raqamli transformatsiya darajasi va tashqi moliyaviy muhit bilan o‘zaro munosabatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, uning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash, iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish hamda moliyaviy tahlil usullari qo‘llanildi. “Agro finans lizing” AJning 2019-2024 yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida investitsiyaviy faoliyat ko‘rsatkichlari iqtisodiy-statistik usullar yordamida baholandi.

Tahlil va natijalar

Mazkur ilmiy maqolani bajarish davomida biz tomondan respublikamizdagi yetakchi lizing kompaniyalaridan biri bo‘lgan “Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga doir investitsiyaviy qarorlar qabul qilish amaliyoti tahlil qilindi. “Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyati moliyaviy natijalari va ko‘rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, keyingi yillarda jamiyat tomonidan aksariyat moliyaviy natijalar bo‘yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganligini qayd etish mumkin. Jamiyatning aktivlar dinamikasini ko‘radigan bo‘lsak, 2019 yilda jamiyatning jami aktivlari hajmi 24 077,5 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2025 yil 1 yanvar holati ko‘ra 2681095,1 mln. so‘mga yetgan. Hisobot davri mobaynida aktivlarning o‘sish hajmi deyarli 94 barobarga oshganligini ko‘rish mumkin (1-jadval). Asosiy vositalar deyarli o‘zgarishsiz





(25720,6 → 27869,4 mln.so‘m) qolgan bo‘lsada, kapital qo‘yilmalar 285654,48 mln. so‘mga chiqib, 81,6 baravarga oshdi, bu esa alohida e‘tirof etish kerak bo‘lgan jihat ya‘ni yirik miqdordagi yangi investitsiyalar kiritilganini ko‘rsatadi.

1-jadval
“Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyatining aktiv va passivlari dinamikasi (mln.so‘m)*

№	Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Uzoq muddatli aktivlar, shundan:	1543,05	44619,1	122366,03	260203,6	1465019,1	1865632,4
	asosiy vositalar	821,3	5405,3	59760,88	25720,6	25537,97	27869,4
	uzoq muddatli investitsiyalar	156,8	156,8	9248,6	77639,8	240190,1	268521,2
	qimmatli qog‘ozlar	116,8	116,8	116,8	116,8	116,8	115,4
	sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar	40,0	40,0	40,0	40,0	40,0	40,0
	kapital qo‘yilmalar	564,9	39056,9	43883,4	3762,1	306966,26	285654,48
2.	Joriy aktivlar, shundan:	22534,5	59829,9	185141,21	525971,7	790649,9	815462,7
	TMZ	6339,1	7696,1	52406,6	12726,7	12284,0	14586,1
	Debitorlik qarzlari	5357,5	34702,09	37409,96	95135,3	220270,3	205458,5
	Pul mablag‘lari	626,7	15903,5	29423,85	4589,67	3866,1	4175,6
Jami aktivlar		24077,55	104449,0	307507,24	786175,3	2255669,0	2681095,1
3.	O‘z mablag‘lari, shundan:	7292,9	6888,3	275106,1	292814,1	449843,64	576109,7
	ustav kapitali	2300,0	2300,0	267400,0	267400,0	407783,0	418965,1
	rezerv kapitali	1471,01	1476,4	1463,09	2905,4	4836,2	5014,8
	taqsimlanmagan foyda	3521,9	3111,8	6243,04	22508,63	37224,37	39115,7
4.	Majburiyatlar, shundan:	16784,6	97560,7	32401,1	493361,2	1805825,4	2104985,4
	uzoq muddatli majburiyatlari	0	0	0	0	621700,1	514708,4
	joriy majburiyatlari	16784,6	97560,7	32401,1	493361,3	1184125,2	1254658,8
	kreditorlik qarzlari	10284,6	97560,7	32401,1	493361,3	297962,4	254986,4
Jami passivlar		24077,55	104449,0	307507,24	786175,3	2255669,0	2681095,1

*“Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyatining yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘z navbatida, jamiyatning uzoq muddatli investitsiyalar ham 240190,1 mln.so‘mga oshganligini ko‘rish mumkin. Joriy aktivlar hajmi esa 1,5 baravarga oshib 790649,9 mln.so‘mga yetdi, bu o‘shishni ijobiy baholash qiyin chunki eng katta o‘shish debitor qarzlarda kuzatildi (95135,3 → 205458,5 mln.so‘m). Shu bilan birga, joriy aktivlar va debitor qarzlari keskin oshgan bo‘lib, bu esa pul oqimlari muvozanatini tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Jamiyatning tahlil qilinayotgan davrda passivlari bo‘yicha ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lib, o‘z navbatida mazkur o‘zgarishlar uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari sifatida baholash mumkin. Tahlil qilinayotgan 6 yillik davr mobaynida jamiyatning o‘z mablag‘lari hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Agar ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda 7292,9 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 576109,7 mln. so‘mgacha ortgan. Bu o‘shish kompaniyaning ichki moliyaviy salohiyati va kapitalni shakllantirish bo‘yicha olib borilgan





strategik choralar samaradorligini aks ettiradi. 2020-yildagi keskin pasayish (6888,3 mln so‘m) kompaniya ichki resurslarining qisqarishi, ehtimoliy zararlar yoki kapitalning qayta tuzilishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Jamiyat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish va xizmatlar hajmini kengaytirish maqsadida 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqilgan. Jamiyat tomonidan zamonaviy intensiv bog‘larni tadbirkorlik subyektlariga lizing asosida berish hamda elektromobillarni lizing asosida berishga ixtisoslashgan bo‘lib, quyida 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligiga doir ma‘lumotlarni tahlil qilib chiqamiz. Asosiy loyiha ya‘ni zamonaviy intensiv bog‘larni tadbirkorlik subyektlariga lizing asosida berish bo‘yicha investitsiya loyiha ma‘lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

“Agro finans lizing” AJning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihasi moliyaviy ko‘rsatkichlari*

№	Ko‘rsatkich nomi	Ko‘rsatkich qiymati
1	Investitsiya davri, yil	5 yil
2	Loyiha hisob-kitob davri, oy	60 oy
3	Loyihaga jalb etilgan kapital hajmi (LDC), (AQSH dollari)	10 000 000
4	Loyiha bo‘yicha umumiy tushum (SP) (AQSH dollari)	144 257 667
5	Loyiha davrida olingan sof foyda, (AQSH dollari)	22 997 807
6	Loyiha davridagi o‘rtacha rentabellik darajasi	16%
7	Sof joriy qiymat (NPV), (AQSH dollari)	5 473 875
8	Foydalilik me‘yori (ARR)	46%
9	Kiritilgan investitsiya rentabelligi (ROI)	230%
10	Foydalilik indeksi (PI)	1,55
11	Daromadlilikning ichki me‘yori (IRR)	41%
12	Modifikatsiyalangan ichki daromadlilik me‘yori (MIRR)	64%
13	Qaytish muddati (Payback Period – PBP), oy	37 oy
14	Diskontlangan qaytish muddati (Discounted PBP – DPBP), oy	44 oy

*“Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyatining investitsiya dasturlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jamiyat tomonidan zamonaviy intensiv bog‘larni tadbirkorlik subyektlariga lizing asosida berish bo‘yicha loyiha uchun 10 million AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilgan bo‘lib, loyiha yakunida umumiy 144 million dollarlik tushum va 22,9 million dollarlik sof foyda keltirilgan. Bu investitsiya loyihasining daromadlilik salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. 5,4 mln. AQSH dollari miqdoridagi musbat NPV (investitsiya jozibadorligini ifodalaydi) loyiha qiymatini oshiradi va uning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini isbotlaydi. Daromadlilik ichki me‘yori (IRR) 41% bo‘lib, loyiha bo‘yicha diskont stavkasi (odatda 10-15%)dan ancha yuqori hisoblanadi. Bu esa loyiha sarmoyadorlar uchun yuqori daromadli ekanligini ko‘rsatadi. Loyiha bo‘yicha rentabellik indeksi PI esa (Profitability Index) 1,55 ga teng bo‘lib, ya‘ni mazkur loyiha bo‘yicha har 1 AQSH dollari miqdoridagi investitsiya hisobiga 1,55 AQSH dollari qiymatidagi foyda keltiriladi. Ma‘lumki, $PI > 1$ bo‘lishi, loyiha daromadli, $PI < 1$ bo‘lishi esa zararli yoki samarasiz ekanidan dalolat beradi. PI darajasi 1,0 dan yuqori bo‘lgan har qanday loyiha moliyaviy jihatdan maqbul deb baholanadi. Jamiyat tomonidan olingan natija, investor kiritgan har bir 1 dollar evaziga 0,55 dollarlik yoki 55 foizlik sof daromadga ega bo‘lishini anglatadi. O‘z navbatida ushbu qiymat investorlar, banklar va moliyaviy tahlilchilar uchun loyiha ustuvorligini baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

ROI (Return on Investment) - bu investitsion kapitalning umumiy samaradorligini ifodalaydigan eng universal ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib 2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, ushbu ko‘rsatkich 230 foizga teng bo‘lmoqda. $ROI = 230\%$ degani, loyiha investor kapitalini 2,3 baravar ko‘paytirgan bo‘lib, bu nafaqat foyda, balki kapitaldan maksimal foydalanilganligini bildiradi. Bunday yuqori ROI faqat yuqori daromadli, tez qaytadigan va kapital aylanmasi yuqori bo‘lgan





loyihalarda kuzatiladi. ROI investitsiya samaradorligini baholashda investorlar uchun muhim mezon bo‘lib, bu ko‘rsatkich yordamida turli investitsion loyihalarni bir-biri bilan solishtirish va ustuvorligini aniqlash mumkin. 2-jadval ma‘lumotlaridan foydalangan holda, jamiyatning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan loyihaning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlaymiz (3-jadval).

3-jadval

“Agro finans lizing” AJning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihasi samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili*

Ko‘rsatkichlar	2025 y.	2026 y	2027 y	2028 y	2029 y.	2030 y.
Pul oqimlari (CF, ming. AQSh doll.)	900,0	1100,0	1300,0	1400,0	1600,0	1800,0
Diskont koeffitsiyenti	0,89	0,80	0,71	0,64	0,57	0,51
Diskontlangan qiymat (DCF, ming. AQSh doll.)	803,57	876,91	925,31	889,72	907,88	911,93
Pul oqimlari yig‘indisi	900,0	2000,0	3300,0	4700,0	6300,0	8100,0
Diskontlangan qiymat yig‘indisi	803,57	1680,48	2605,79	3495,52	4403,4	5315,34
Sof joriy qiymat (NPV)	-4196,42	-3319,51	-2394,2	-1504,47	-596,59	315,34
Rentabellik indeksi (PI)	0,16	0,34	0,52	0,7	0,88	1,06

*“Agro finans lizing” aksiyadorlik jamiyatining investitsiya dasturlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, yillik pul oqimlari (CF) har yili muntazam ortib borgan bo‘lib ushbu ko‘rsatkich 2025 yilda 900,0 ming AQSh dollaridan boshlab, 2030 yilga kelib 1800 ming AQSh dollarigacha yetgan. Bu holat loyiha daromadlarining progressiv tarzda ortib borayotganligini ko‘rsatadi, ya‘ni jamiyat moliya sektorida xizmat ko‘rsatish faoliyatining yildan-yilga yaxshilanayotganini anglatadi. Diskontlash koeffitsiyenti 2025 yildan 2030 yilgacha pasayib borgan bo‘lib (0,89 dan 0,51 gacha), bu vaziyatda qiymatlar zamirida vaqtning qiymati tushunchasi yotibdi, ya‘ni har bir keyingi yilga to‘g‘ri keladigan daromadlar hozirgi qiymatda shunchalik kam baholanadi.

Shunga muvofiq, 2025 yildagi 900,0 ming dollar hozirgi qiymatda 803,57 ming dollar, 2030 yildagi 1800,0 ming dollar esa atigi 911,93 ming dollar sifatida aks etmoqda. Bu investitsiya baholashda vaqt omilining naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Sof joriy qiymat (NPV) ko‘rsatkichi loyiha samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi. 3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, NPV dastlabki besh yil davomida manfiy (salbiy) bo‘lgan bo‘lsa, 2030 yilga kelibgina 315,34 ming AQSh dollari miqdorida musbat qiymatga chiqadi. Bu esa, loyiha boshlang‘ich bosqichda katta sarmoyalarni talab qilgan va daromadlar xarajatlardan kam bo‘lganligini anglatadi. Faqatgina olti yillik muddat o‘tgach, loyiha sof foyda bera boshlaydi. Shuning uchun, bu investitsiya uzoq muddatli yondashuvni talab qiluvchi loyiha sifatida tavsiflanadi. PI ko‘rsatkichi 2025 yilda 0,16 (ya‘ni har 1 AQSh dollar investitsiyaga 0,16 AQSh dollar daromad), 2030 yilda esa 1,06 (ya‘ni har 1 AQSh dollar investitsiyaga 1,06 AQSh dollar daromad)ga teng bo‘lmoqda. Bu indeksning 1 dan kichik bo‘lishi – investitsiya samarali emasligi, 1 dan katta bo‘lishi esa – daromadlar investitsiyani qoplay olishini anglatadi.

2025-2028 yillarda NPV salbiy va rentabellik past bo‘lishi dastlabki yondashuvda, loyihani moliyaviy jihatdan samarasiz ekanligini namoyon etishi mumkin. Bu davrda investorlar “sabrlil” bo‘lishi, foyda olishni emas, balki asosiy infratuzilmani shakllantirish va bozor ulushini egallashga e‘tibor qaratishlari kerak. 2029-2030 yillar – investitsiyaning samarali qaytish bosqichi bo‘lib, 2030 yilga kelib NPV musbat (315,34 ming AQSh dollari), rentabellik indeksi 1 dan katta (1,06),





bu esa loyiha iqtisodiy samarali ekanini namoyon etadi. Bu davrda loyihani kengaytirish, daromadlarni reinvestitsiya qilish yoki dividend to‘lash boshlanishi mumkin. Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi investitsiyaviy tavsiyalarni shakllantirishimiz mumkin. Diskontlangan qiymat yig‘indisi bo‘yicha fikrlarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich 2030 yilga borib 8100,0 ming AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilingan bo‘lsa, diskontlangan qiymatlar yig‘indisi esa 5315,34 ming AQSh dollarga teng bo‘ladi.

Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi farq (2784,66 ming dollar) vaqt qiymati yo‘qotilishini anglatib, ya‘ni loyihaning hozirgi davrda baholangan sof qiymati dastlabki qiymatiga nisbatan ancha past degan xulosani beradi. Bu tahlil esa, loyihaga tejamkorlik va vaqt bo‘yicha sezgirlik (ta‘sirchanlik) nuqtai nazaridan ehtiyotkorona yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Loyiha daromadlarining o‘shish tendensiyasini mavjud ekanligi, uning moliyaviy istiqbolini ko‘rsatadi. Investitsiyaning diskontlangan qoplash muddati faqat oltinchi yilga boribgina amalga oshadi, bu esa uzoq muddatli investitsion loyihalar qatoriga kiritadi. Rentabellik indeksi va NPV asosida loyiha faqat oxirgi yillarda moliyaviy jihatdan ma‘qul bo‘lishi mumkin. Diskontlash orqali aniqlangan qiymatlar investorlar uchun real baholash imkonini beradi. Loyihaning boshlang‘ich bosqichidagi salbiy NPV qiymatlari uni riskli deb baholash imkonini beradi, shuning uchun bu turdagi investitsiyalarni amalga oshirishda risklarni kamaytirish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa

Xalqaro amaliyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik me‘yori (IRR), rentabellik indeksi (PI), modifikatsiyalangan ichki daromadlilik me‘yori (MIRR) hamda investitsiyalar rentabelligi (ROI) kabi ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yuqori darajada baholash imkonini beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiyaviy faoliyati sezilarli darajada takomillashib bormoqda. Xususan, lizing kompaniyalari real sektor korxonalarining texnik va texnologik modernizatsiyasini moliyalashtirishda muhim moliyaviy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha qabul qilayotgan qarorlari nafaqat korxonalarining moliyaviy natijalariga, balki butun iqtisodiyotning investitsion faolligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

“Agro finans lizing” AJ faoliyatining tahlili jamiyatning investitsiyaviy faolligi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatdi. Xususan, jami aktivlar hajmining 24,1 mlrd. so‘mdan 2,68 trln. so‘mga yetishi, uzoq muddatli investitsiyalar va kapital qo‘yilmalarning keskin o‘shishi jamiyat tomonidan investitsion rivojlanishga ustuvor ahamiyat berilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, debitorlik qarzlarning ortib borishi pul oqimlarini boshqarish va investitsiya loyihalari monitoringini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur holat investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklarni tizimli tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmini takomillashtirish kerakligini namoyon etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, korporativ obligatsiyalar, yashil obligatsiyalar, sukuk obligatsiyalari, kraudfanding va venchur kapital kabi muqobil moliyalashtirish instrumentlari investitsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali manbalaridan hisoblanadi. Ushbu instrumentlardan foydalanish amaliyotini O‘zbekiston lizing kompaniyalari faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish investitsina resurslar bazasini kengaytirish, bank kreditlariga bog‘liqlikni kamaytirish va moliyalashtirish xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Lizing kompaniyalarida investitsiyaviy qarorlar qabul qilish amaliyotini takomillashtirish uchun ERP, Business Intelligence, sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish zarur. Mazkur texnologiyalar investitsiya loyihalari bo‘yicha ma‘lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, pul oqimlarini prognoz qilish, risklarni baholash va investitsiya portfeli samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek,





investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda ESG tamoyillarini qo'llash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda ularning ekologik va ijtimoiy ta'sirini ham baholash korporativ tuzilmalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-291-son qarori.

2. Pola Nachyła, Rachida Justo, How do impact investors leverage non-financial strategies to create value? An impact-oriented value framework, *Journal of Business Venturing Insights*, Volume 21, 2024.

3. Bin Cao, Yuanguang Zhong, Yong-Wu Zhou, The role of completely joint liability in financing multiple capital-constrained firms: Risk sharing, inventory and financial strategies, *European Journal of Operational Research*, Volume 313, Issue 3, 2024, Pages 1072-1087.

4. Alicia Ramírez-Orellana, MCarmen Martínez-Victoria, Antonio García-Amate, Alfonso A. Rojo-Ramírez, Is the corporate financial strategy in the oil and gas sector affected by ESG dimensions?, *Resources Policy*, Volume 81, 2023.

5. Соколова Н.Н., Егорова Т.Н. Финансовая стратегия как важная составляющая общей стратегии компании//Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-12.

6. Попов С.А. Стратегический менеджмент: актуальный курс 2-е изд., пер. и доп. Учебник - Москва: Издательство Юрайт, 2024 - 481 стр.

7. Xamdamov O.N. Moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda multiplikator koeffitsientlardan foydalanish amaliyotini takomillashtirish//Moliya imiy jurnali, 1/2024.

8. Egamberdiyev Sh.S., Mo'minov Sh.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilishda moliyaviy strategiyaning o'rni va ahamiyati// *Research and education*, Volume 2, Issue 4, 2023.

9. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: i.f.d., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2018. – 14 b.

10. Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2021. – 17 b.

